

**“O‘ZBEKISTON: IJTIMOIIY O‘ZGARISHLAR”**

**Obidova Ruxshona Vohid qizi**

*Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti*

*Turk-ingliz yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

[obidovaruxshona56@gmail.com](mailto:obidovaruxshona56@gmail.com)

*Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti*

*katta o‘qituvchisi I. Xudoynazarov*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, uning jahon hamjamiyatidagi o‘rni, yurtboshimizning Xalqaro munosabatlarda va yurtimizda amalga oshirilayotgan dasturlari, ijtimoiy- siyosiy holat, mamlakatimizning avvalgi va hozirgi davr bilan tavofutlarini, yoshlarga jamiyatning yuksalishida yaratilib berilayotgan imkoniyatlar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Xalq qabulxonasi, “Yagona darcha”, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, Trast fondi, MDH, SHHT, YXHT, KHT

Avvalo biz Vatan haqida gapirar ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda tug‘ilib o‘sgan jonajon makonimiz gavdalanadi. Cho‘lda o‘rmalab yurgan jonivorlar ham tug‘ilishidanoq o‘z makonlarini biladilar, havoda uchuvchi qushlar ham, dengiz va daryodagi baliqlar ham o‘z oshyonlarini his qiladilar, hatto bolari va shunga o‘xshash jonivorlarda ham vatan tuyg‘usi, o‘z uyasini himoya qilish, asrab-avaylash hissi bo‘ladi. Mana shunday oliy ne‘matlardan biri bu- Vatanparvarlik. Vatanparvarlik-yolg‘iz o‘z vataniga mehr qo‘yish bilan iborat emas, bu- Vatani bilan bir butun bo‘lish, har bir vaziyatda, yaxshi- yomon kunlarida asqotish demakdir. Vatanparvarlik haqida so‘z borar ekan, mening nazdimda bu jumla o‘z vatani kamoloti, o‘z xalqiga muhabbati tufayli jonini ham ayamaydigan, yurtning farovonligi, tinchligi uchun jonini fido qilguvchi insonlar gavdalanadi. Vatanparvarlikning tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Biz o‘zib ulg‘ayar ekanmiz, qalbimizda Vatan, yurt tinchligi va osoyishtaligi uchun yaraydigan inson sifatida kamol topish hissi turadi. Vatan oldidagi burch inson uchun muqaddas, avvalo inson kim bo‘lishidan qat’iy nazar, vatanparvarligi so‘zi bilan emas, amali bilan isbot etiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ko‘plab islohotlar, o‘zgarishlar, dunyoda, shu jumladan, jahon hamjamiyatida o‘rni ham tobora yuksalib bormoqda. Avvalo, xalqimiz, biz tashkil etayotgan jamiyatimizning yuksalishi, rivojlanishi yoshlarning olayotgan ta’lim va tarbiyasiga bog‘liqdir. Xalq ta’limi tizimidagi islohotlar natijasida 2017- 2020- yillarda 328 ta yangi maktab barpo etildi va 11 yillik majburiy maktab ta’limi tiklandi. Maktabgacha ta’lim tizimida ham katta o‘zgarishlar yuz berdi. 2016- yilda 5,2 ming bolalar bog‘chalari faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2020- yilda ular 18,3

mingga yetdi (shu jumladan davlat bog'chalari soni 5 mingdan 6,2 mingga oshdi). Bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi darajasi 2020- yilda 61% ga yetdi, 2016- yilda esa 27,7% bo'lgan edi. Harakatlar strategiyasi bugungi globallashuv sharoitida jahonda tub o'zgarishlar kechayotgan murakkab bir vaziyatda, O'zbekiston uchun siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning eng muhim besh ustuvor yo'nalishini amalga oshirishning yaqin istiqbolga mo'ljallangan muhim milliy strategik hujjati ekanligi amalda to'laqonli o'z aksini topganligi e'tirof etish lozim. Ayniqsa, prezidentimiz o'lkamizda yuritayotgan ko'plab taraqqiyot yo'llari, masalan, Harakatlar strategiyasi (2017- 2021- yillar), Taraqqiyot strategiyasi (2022- 2026-yillar) mamlakatimiz yana bir pog'onaga yuksaklashganini ko'ramiz. Yuqori aytib o'tganimizdek, bu kabi ishlarni faqatgina so'zda emas, amalda ham bajarishga bog'liq. Yurtboshimiz 2017- yilda e'lon qilgan Harakatlar strategiyasi bo'yicha yurtimizning har bir sohasida islohotlar amalga oshirildi. Iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, qonunchilik, sud- huquq tizimi, xalq farovonligi va tinchligi kabilar shular jumlasidandir. Ushbu dasturiy hujjat mamlakatimizni mutlaqo yangi taraqqiyot bosqichiga o'tishi uchun yo'l ochib berdi. Mening nazdimda Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi O'zbekiston uchun katta qadam bo'ldi, mamlakat bu boradi ishonchli harakat qilib, zarur mustahkam asosni yaratdi. Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishi- "Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish" borasida bir qator ma'muriy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 110 ta samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan Idoralararo Organlar faoliyati tugatildi. 10 ta yangi vazirlik va idoralar tuzilib, 6 ta davlat funktsiyasi xususiy sektorga o'tkazildi. 2017- yildan boshlab O'zbekistonda Xalq qabulxonalari va Prezidentning Virtual qabulxonalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Ular aholi bilan bevosita muloqotni, tezkor javob berishni va joylarda muammolar hal etilishini ta'minlab kelmoqda. 2017- yildan 2020- yilgacha ular orqali 10,1 million murojaatlar o'rganilib, ijobiy hal etilgan. Byurokratiyaga qarshi kurashish natijasida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan hujjatlar soni 2 barobarga, (167 dan 79 gacha) qisqartirildi. 4 yil ichida "Yagona darcha" tamoyili asosida taqdim etiladigan xizmatlar soni 10 barobarga (16 dan 157 gacha) oshdi. Harakatlar strategiyasini ro'yobga chiqarish uchun 311 ta qonun 2000 ga yaqin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, 3000 dan ziyod Hukumat qarorlari qabul qilinganligi alohida ta'kidlab o'tish joiz<sup>1</sup>.

Ushbu Harakatlar strategiyasida milliy qadriyatimizning o'zagi bo'lgan madaniyat va san'at sohalarida ham juda katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, millat yuksalishining muhim ustunlaridan biri bo'lgan madaniyat sohasini tubdan isloh qilish "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017- yil 15- fevralda

<sup>1</sup>G'aniyeva.S Alisher Navoiy. -T.:1968. 78-b.  
Abdullayev.V Navoiy Samarqandda. -T.: 1968. 112-b.

imzolangan farmondan boshlandi, desam mubolag'a bo'lmaydi. 2004- yilda Madaniyat va Sport sohasining yagona boshqaruv tizimi tashkil etilganligi, qariyb 12 yildan ortiq vaqt davomida o'zini oqlamadi. O'tgan davrdagi hayotiy tajriba shuni ko'rsatdiki, bitta vazirlikda madaniyat va sport sohalarining ko'p qirrali va murakkab jihatlarini to'liq o'rganilmasdan birlashtirilganligi, madaniyat va san'at sohasining yirik yo'nalishlari bo'lgan teatrlar, muzeylar, bolalar musiqa va san'at maktablari, mumtoz musiqa, madaniyat markazlari, muzeylar, madaniyat va istirohat bog'lari va xalq ijodiyoti san'ati turlarini ommalashtirish hamda ommaviy jismoniy tarbiyani keng miqyosda rivojlantirish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar ijrosi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan mutasaddi organ sifatida to'liq amalga oshirilmadi. Yuzaga kelgan salbiy holatlarni bartaraf etish uchun vazirlik faoliyatini qayta ko'rib chiqish zarurati paydo bo'ldi. Shunga ko'ra, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatilib, Prezident Farmoniga muvofiq uning negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil etildi<sup>2</sup>. Bundan shuni bilishimiz mumkinki, mamlakat aholisining hayoti uchun juda zarur bo'lgan ikkita keng ko'lamli sohaning taraqqiy etishiga to'liq shart-sharoit yaratildi. Madaniyat va san'atning istiqbolini o'ylab prezidentimizning yuritayotgan bunday oqilona siyosati milliy madaniyatimizning kelgusi rivoji uchun muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Shunday qilib, o'zbek san'ati va sportini dunyo miqyosida yuksak natijalarga erishishi uchun zarur imkoniyatlar yaratildi va hozirgi kunda ham sportda, ham madaniyat sohalarida yurtdoshlarimiz jahon miqyosida munosib o'rinlarni egallab kelishyapti. O'zbekistonning ijtimoiy, madaniy hayotidan tashqari uning jahon miqyosida olib borayotgan siyosati ham mamlakatimizning zalvorli yuksalishidan dalolatdir.

Endi yurtimizning jahon hamjamiyatida oldidagi o'rni haqida so'z yuritsak. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi siyosatdagi yo'nalishlarini demokratik prinsiplarga asoslangan holda olib borar ekan, 1991- yil dekabrda 1992- yil iyul oyigacha bo'lgan davr ichida respublikani 111 davlat, hozirgi kunga qadar esa O'zbekiston mustaqilligini 180 dan ortiq davlat tan oldi. Ularning 100 dan ortig'i bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Dastlab Toshkentda AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Malayziya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning elchixonalari ochildi. Shuningdek, O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari ochildi. O'z navbatida O'zbekistonning elchixonalari dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda faoliyat ko'rsatib turibdi. Mamlakatimiz har tomonlama diplomatik, siyosiy, iqtisodiy aloqalarni toboro kengaytirib bormoqda.

<sup>2</sup> Askarov, M.M va Haydarov, M.I. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" Toshkent-2022. 276- 284-b.  
Abdullayev, V. Navoiy Samarqandda. -T.: 1968. 115-b.

Shuningdek, hukumat, vazirlik, idoralar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari darajasida 360 ta tashrif amalga oshirildi. Jahonda tanilgan dunyo tinchligini saqlovchi tashkilotlar BMT, MDH, SHHT, YXHT, KHT tashkilotlarga a'zo sanaladi. O'zbekiston diplomatiyasining yutuqlaridan biri o'zbekistonlik taniqli diplomat Vladimir Norovning 2019- yil 1- yanvardan boshlab ShHT Bosh kotibi lavozimiga tasdiqlanganligi ham tarixiy voqea bo'ldi. 2019- yil 3- yanvarda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vladimir Norovni ShHT Bosh kotibi sifatida qabul qildi. O'zbekiston tashqi siyosatidagi ijobiy o'zgarish va natijalarni yana boshqa ma'lumotlar misolida ko'rish mumkin. Faol tashqi siyosat tufayli mamlakati mizning xalqaro obro- e'tibori 2018- yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili" O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev dunyoning turli mamlakatlariga 30 ga yaqin oliy darajadagi tashriflar bilan bordi hamda nufuzli tashkilotlarning sammitida qatnashdi. Keyingi ikki yil ichida xorijiy mamlakatlar prezidentlari mamlakatimizga 16 ta tashrifni amalga oshirdi. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasida nutq so'zladı. Unda bildirilgan takliflar xalqaro hamjamiyat tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Prezidentimiz tashabbusi bilan, ilk bor Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvi tashkil etildi hamda Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusidagi yuqori darajadagi Toshkent konferensiyasi o'tkazildi. Prezidentimiz Xitoyning Sindao shahrida ShHT Davlat rahbarlari Kengashining o'n sakkizinchi majlisida ishtirok etdi, BMT shafeligida Orolbo'yi mintaqasi uchun Trast fondi faoliyati yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT minbarida so'zlagan ilk nutqi ramziy ma'noga ega bo'lib, O'zbekistonning xalqaro maydonda ijobiy imijini oshirish, olib borilayotgan islohotlar bilan jahon hamjamiyatini xolisona tanishtirish kabi tashabbuslar kelgusida yanada ko'payishi tabiiydir. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar, birinchi navbatda, Rossiya Federatsiyasi bilan, shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Koreya Respublikasi va Yaponiya bilan munosabatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan faol tashqi siyosat olib borishda muhim rol o'ynadi. O'zbekiston 2017- yildan boshlab Xitoy tashabbusi bilan tashkil qilingan "Bir makon, bir yo'l" Xalqaro forumining ishtirokchisidir. Mazkur hamkorlik ikki yo'nalish- quruqlik va dengiz orqali davlatlararo hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. U hozigi kunda Osiyo, Afrika va Yevropadagi 65 mamlakatni qamarab olgan. 2019- yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mazkur forumda nutq so'zlab, O'zbekiston va Xitoy sheriklik aloqalarini yuksaltirishdan minnatdorligini qayd qilgan edi<sup>3</sup>. Umuman, qayd qilingan ma'lumotlarga tayanib, O'zbekiston va Xitoy davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar

<sup>3</sup> <https://strategy.uz/index.php?news=1953&lang=uz>

jadal rivojlanayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu esa kelajakda har ikki davlat o'rtasidagi sherikchilik aloqalarining strategik imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishni taqozo etadi. Yevropa va Osiyo qit'alararo savdo aloqalarida o'zida ishlab chiqilgan mahsulotlari, ayniqsa, xo'jalik mollari yuqori o'ringa ega. Avvalgi davr bilan taqqoslaganda, O'zbekiston savdo-sotiq, dengizorti mamlakatlar bilan aloqalari borasida imkoniyatlari kamroq edi, ammo hozirda, bu boradi mamlakatimizning temiryo'llari, havo transporti yaxshiroq yo'lga qo'yildi. Masalan, Turkmaniston orqali Eron bilan bog'laydigan temiryo'llar qurildi. O'zbekistonning Afg'onistondagi ko'plab shaharlarda temiryo'llarni qurish loyihalarini amalga oshirdi va qurib bitkazildi. Afg'onistonda temiryo'llarning qurilishi va Pokistonning Karachi shaharlariga qadar bog'lanishi unga okeanga chiqish imkonini berdi. Bu orqali dengiz savdosi borasida o'z o'rniga ega bo'ldi<sup>4</sup>.

Xulosa qilib aytganda, ya'ni mening nazdimda Yangicha O'zbekiston kelajak yoshlari uchun jamiyatning har jabhalarida yuksak izlanishlar islohotlar amalga oshiryapti. Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar, odamlarning farovon hayot tarzi uchun yangi bir yo'ldir. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim- tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Ushbu jarayon orqali biz davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda yangiliklar kiritishni, adolat, inson huquqlari va demokratiyani rivojlantirishni ko'zda tutamiz. Bundan maqsadimiz mamlakatning barcha qatlamlari uchun farovon va barqaror kelajak yaratish, shuningdek, xalqning faol ishtirokini ta'minlashdir. Xalqimizda "Hamma narsa niyatga bog'liq", degan ajoyib naql bor. Ko'zlagan niyatlarimizga erishish uchun vaqt, tajriba kerak va yana shu o'rinda yaxshi niyat bilan hamma harakat qilsagina, Yangi rivojlangan O'zbekiston qura olamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M.M.Askarov va M.I. Haydarovning "O'zbekistonning eng yangi tarixi" Toshkent-2022. 276- 284-b.
2. "Yangi O'zbekiston" gazetasi B-2 78-son
3. G'aniyeva.S Alisher Navoiy. -T.:1968. 78-b.
4. Abdullayev.V Navoiy Samarqandda. -T.: 1968. 112-b.
5. <https://www.yoshlarovozi.uz//news>.
6. [https://presidentt.uz/oz/pages/view/strategy?menu\\_id=144](https://presidentt.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144)
7. <https://strategy.uz/index.php?news=1953&lang=uz>
8. Strategy: A History" — Lawrence Freedman "Good Strategy Bad Strategy" — Richard Rumelt
9. Harvard Business Review "The New Science of Strategy" maqolasi.

<sup>4</sup> [https://presidentt.uz/oz/pages/view/strategy?menu\\_id=144](https://presidentt.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144)

Strategy: A History" — Lawrence Freedman "Good Strategy Bad Strategy" — Richard Rumelt  
Harvard Business Review "The New Science of Strategy" maqolasi.